



# МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХЭМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

## YANGI O‘ZBEKISTON UMUMIY TA’LIM TIZIMIDA USTOZ- SHOGIRD AN’ANALARINING AHAMIYATI VA ISTIQBOLI

*Abdufattoxova M.B.*

*T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI  
1-bosqich tayanch-doktoranti.*

**Tayanch so‘zlar:** ustoz-shogird an’anasi, pedagogika, ta’lim muassasasi, ajdodlardan meros qadriyat.

**Ключевые слова:** традиция учителя-ученика, педагогика, учебное заведение, наследие от предков ценность.

**Key words:** teacher-student tradition, pedagogy, educational institution, ancestral heritage value.

Bilamizki, ustoz degan sharafli nomga sazovor bo‘lish har kimga ham nasib etmagan. Bu ulug’ nomni olish uchun ko‘p yillar davomida murakkab sinovlardan o‘tishi lozim bo‘lgan. Ko‘plab mutaxassislar orasida bu sharafli nomga kamdan-kam inson muassar bo‘lgan.

Ustoz va shogird munosibatlari haqida azaldan juda ko‘p gapiriladi. Sharq xalqlarida ustoz, murabbiy, mudarris, muallim, tarbiyachi nomlari bilan yuritiluvchi zotlarning izzati va hurmati hamisha yuqori bo‘lgan Qadimda har bir hunar muqaddas hisoblangan bo‘lib, uni hurmatlab, e‘zozlab kelganlar. Ota-bobolarimiz ustoz va shogirdlar uchun o‘ziga xos odob-axloq, maxsus qonun-qoidalar, urf-odatlar, duolar, milliy an’analarni ishlab chiqqan bo‘lib, bu qoidalarga qat’iy rioya qilingan. Ustozning ham, shogirdning ham oldiga qo‘yilgan o‘ziga yarasha vazifalari va burchlari bo‘lgan.

Qadimda milliy an’ana bo‘yicha shogirdlikning o‘ziga xos odob-axloq qoidalari bo‘lgan. Chunonchi, Husayn Voiz Koshifiy bunday deydi: «Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so‘rasalar, yettita degin. Avvalo, o‘z ishiga yaxshi munosabatda bo‘lish, ya’ni o‘z kasbini sevish; o‘z kasbiga e‘tiqod qo‘yish va unga ishonish; ustoz oldida haqsevar bo‘lish, o‘z nojo‘ya odatlarini tark etish; ko‘rish lozim bo‘lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish; eshitish mumkin bo‘lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik; barcha noloyiq

ishlardan qo‘l tortish; ustoziga zid bo‘lgan kishilar bilan muomala qilmaslik. Agar shogirdlikning asoslari nechta deb so‘rasalar, oltita degin: rostgo‘ylik, vafodorlik, mas‘uliyatlilik, nasihatni quloqqa olish, ozor bermaslik, sir saqlash. Shogirdlikning eng yaxshi xislati nima deb so‘rasalar, poklik deb javob beriladi. Shogirdlikning noyob gavhari nima deb so‘rasalar, hamkasb do‘stlarini xushnud etish deb javob bergin»[

Amir Timur doimo quyidagi fikrlarni tez-tez takrorlaganekan: “Mening katta marralar va yutuqlarimda, buyuk davlat barpo etishimda ustozim Said Barakaning xizmatlari beqiyosdir”.

I.Gyote ham o‘z zamonida betakror fikrlarni aytgan: “Chinakam shogird bor narsalar negizida mavhum narsalar rivojini o‘rganadi va shu yo‘l bilan ustoziga yaqinlashib boradi”. Demak, bugun ta‘limda ustoz-shogird a‘anasida o‘ta nozik bo‘lgan qirralarni anglash va munosabatlarni mustahkamlash muhimdir. Bu munosabatlar o‘zaro hurmat va ishonch, insoniylik va mehr-oqibatda ko‘rinadi. Bu qurilma bir kunda emas, balki qadamba-qadam, bosqichma-bosqich, yillar davomida quriladi.

Ustoz hamda shogird tizimi hamkorligi ta‘lim samaradorligini hamda ta‘lim sifatini oshirish uchun qo‘llaniladigan barcha chora-tadbirlar shuni ko‘rsatadiki, har bir fanning negizida albatta ustoz hamda uning bilimi va u bilimni qay darajada yetkazib bera olish xususiyatlari mavjud. Ustoz va shogird tizimi asosida ish yuritilganda bo‘lg‘usi mutaxassislarning kasbga doir bôlgan barcha masalalarini aniqlash hamda ularga yechim topish, ta‘lim jarayoni mukammalshtirish, zamonaviy ilmiy fikrlash hamda ijtimoiy tajribalarni yanada mukammalashtirish kerakligini anglatadi. Ta‘limni modernizatsiya qilishning muvaffaqiyati, birinchi navbatda, o‘qituvchilar, ularning malakasi va kasbiyligiga bog‘liq. Zamonaviy universitet professional bilimdon, mustaqil fikrlaydigan o‘qituvchi, shuningdek, psixologik va texnologik jihatdan amalda insonparvarlik qadriyatlarini amalga oshirishga muhtoj. Bu innovatsion jarayonlarda mazmunli ishtirok etishga qodir bo‘lgan o‘qituvchi bo‘lishi kerak.

Ustoz-shogird mentorlik maktabi yosh o‘qituvchiga tajribali murabbiy tomonidan zarur ko‘mak, o‘qitish ko‘nikmalariga ega bo‘lish va ish joyida shoshilinch amaliy yordam ko‘rsatishi mumkin. Bunday qarorga bo‘lgan ehtiyoj ustoz-shogird murabbiylik tizimini shakllantirdi, bu esa katta miqdordagi bilimlarni o‘zlashtirish, hayotiy vakolatlarni ishlab chiqish, kasbiy tayyorgarlik va ishlab chiqarish munosabatlarini o‘rnatish qobiliyatiga yordam beradi.

Mustaqillikka erishgach yurtimizda uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida «Ustoz - shogird» an‘analarini tarkib toptirish va rivojlantirishga qadriyatli tus berildi. Masalan, har bir ta‘lim muassasasining pedagog



xodimlariga tahsil oluvchi o'quvchilar «Ustoz - shogird» an'analari asosida birlashtirib chiqildi.

Hozirgi zamon ta'lim tizimini rivojlantirish va uni jahon andozalari darajasiga olib chiqish ta'lim sohasining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Misol uchun musiqa darsi misolida ustoz shogird an'anasiga nazar solsak. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilinganida maktablarda barcha o'quv fanlari qatori, musiqa madaniyati fani uchun ham zamon talabi asosida yangi dastur yaratilgan. Ushbu dastur asosida o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratilib kelinmoqda. Chunki, musiqa o'z tabiatiga ko'ra, inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish xususiyati bilan birga o'quvchilarni nafosatga olib kirish va axloqiy g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir.

Har bir musiqa darsi talabalarni yangi bilimlar bilan boyitishi, ularning ong-bilim doiralarini kengaytirishi, musiqiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishi yoki ilgari o'rganganlarini takomillashtirishi kerak. Talabalar darsdan-darsga go'yo pog'onadan-pog'onaga qadam qo'ygandek bilishning cheki yo'q narvondan olg'a intilib boradilar. Musiqa darslarida talabalarni musiqa sohasida har tomonlama rivojlantirish nazarda tutiladi, ularning musiqaviy madaniyatiga zamin yaratiladi. Musiqa mashg'ulotlarida istisnosiz barcha talabalarning musiqiy faoliyatlarini yo'llaydi va nazorat qiladi. Shuningdek, ularning orasidagi o'zaro aloqa va o'zaro nazoratni qo'llab-quvvatlaydi.

Ustozning darsdagi ishi barcha talabalarning darsning o'zidayoq o'rganilayotgan bilim asoslarini egallashlari, zarur ko'nikma va malakalami hosil qilishlari uchun zamin yarata olishi shart. Ustoz mahoratining mezoni talabani o'zlashtirishi va intizomi bilan belgilanadi. U o'z ustida tinmay ishlasa, ta'lim va tarbiya sohasida ilg'or tajribalarini qo'llab talabalarni kuzatib va o'rganib ulardagi qobiliyat darajasi, o'zlashtirish ko'rsatgichlarini to'g'ri baholay olsa, uni o'z ishiga tadbiiq etsa, o'z pedagogik mahoratini oshirib borishi mumkin. Mahoratli ustoz hamisha shogirdlar orasida yuksak obro'ga ega bo'ladi, chunki u o'quvchilar qalbiga to'g'ri yo'l topa oladi.

Ustoz-shogird an'anasi asosida ta'limda ustozning majburiyatlari va vazifalari quyidagilar deb belgilashimiz mumkin.

Shogirdlarning individual rejasi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirib borishlarini, individual rejasida belgilangan tadbirlarning o'z vaqtida to'liq va sifatli bajarilishini nazorat qiladi.

Uzluksiz malaka oshirish jarayoni monitoringini olib boradi, tegishli hisobotlarni o'z vaqtida tayyorlaydi va tuman(shahar) xalq ta'limi bo'limiga taqdim qiladi.

Shogirdlarining darslarini kuzatadi, tahlil qiladi, amaliy-uslubiy tavsiyalar beradi.

Zamonaviy o‘quv-laboratoriya asbob-uskunolari va jihozlaridan samarali foydalanish bo‘yicha shogirdlariga pedagogik tajribalarni o‘rgatadi va amalga tatbiq qilishga ko‘maklashadi.

Shogirdlarning o‘zlashtirish darajasi quyidagi ko‘rsatkichlar asosida aniqlanadi:

- tegishli fan bo‘yicha o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari o‘sishi darajasi;
- ilg‘or tajribalarni o‘rganishi va amalga tatbiq qilishi;
- o‘z faoliyatida innovatsiyalar (ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalanishi;
- ijodiy, metodik yoki ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanishi;
- hamkasb o‘qituvchilari orasida reytingining ortishi darajasi va boshqa ko‘rsatkichlar.

Natijalar shogird o‘qituvchi ishlaydigan ta’lim muassasasidagi tegishli fan metodika birlashmasi hamda Ustoz tomonidan kuzatib boriladi va metodika birlashmasining xulosasi, ustozning hisoboti har chorak yakuni bo‘yicha tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limiga taqdim etiladi.

Pedagog-ustozlar ta’lim muassasasida pedagog kadrlarning uzluksiz malaka oshirishiga rahbarlik qilayotgan, “Ustoz-shogird” metodi bo‘yicha ishlayotgan ustozlar orasidan tanlanadi. Bunda ustozning o‘zi hamda shogirdlari dars berayotgan o‘quvchilarining o‘zlashtirishi darajasining o‘sishi, ustozning yuqori kasbiy tayyorgarlik darajasiga egaligi, uning metodik va amaliy-pedagogik hamda ijodiy faoliyatidagi natijalari hisobga olinadi.

Ustoz-shogird an‘analarida quyidagi pedagogik tamoyillar muhim o‘rin tutadi:

- onglilik va faollik, ya’ni egallayotgan u yoki bu faoliyatning o‘ziga xos jihatlari, mohiyatini ongli tarzda to‘liq anglab yetish, uning istiqboli va ravnaqi yo‘lida faollik bilan harakat qilish;
- ilm-fanning sir-asrorlarini egallashda puxtalik;
- ta’lim-tarbiyaning turmush, hayot bilan chambarchas bog‘liqligini inobatga olish;
- mutaqillikka, ijodiy izlanishga yo‘naltirib borishda nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog‘liqligini hisobga olish;
- uqitish, tarbiyalash mazmuni va shogirdlik bosqichlarining izchillik bilan belgilab qo‘yilgan anik mantiqiy tartibga ega bo‘lishi;
- shogirdning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.



Demak, uzluksiz ta'lim tizimida «Ustoz-shogird» an'alaridan foydalanish ko'zlangan samarani beradi. Pedagogik ta'limot g'oyalari ga ko'ra amaliy ko'nikma va malakalar bevosita tinimsiz o'z ustida ishlash va orkali shakllanadi. «Ustoz-shogird» an'anasi esa o'quvchilar, talaba- yoshlar hamda yosh pedagoglarda ijodiy izlanishni vujudga keltirishi, pedagogik faoliyat jarayonida ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashishi, shogird dagi iqtidorni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishi bilan ahamiyatlidir. Bu kabi holatlar yoshlarda nafaqat o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashish, balki kattaga hurmat, o'z kasbiga sadoqat, milliy qadriyatlarni e'zozlash kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni ham tarbiyalaydi.

Farzand tarbiyasida sharqona, qadimiy ajdodlar urf-odatlarini, an'analari, axloq-odob qoidalariga amal qilishda. xalqimizning milliy tarbiya tizimidan unumli foydalanishga alohida e'tibor berish va bu borada ustozlar o'z kuchi, aql-zakovotini ayamaskliklari lozim.

#### Adabiyotlar:

1. Husayn Voiz Koshifiy. "Ahloqi muhsiniy". Toshkent. "O'zbekiston" 2019.
2. Amir Temur tarixi (1-, 2-kitoblar; so'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlar muallifi U. Uvatov), Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
3. <https://hikmatlar.uz/quote/1176>
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan). –T.: O'zbekiston, O'RQ 637-son.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. – Toshkent: Hilol-nashr, 2016. – 456 b.

#### РЕЗЮМЕ

Maqolada qadimiy qadriyatlardan biri sanalgan ustoz-shogird an'anasining yosh avlod, yosh kadrlar faoliyatida va hayotida muhim o'rni hamda ustoz-shogird an'anasida, ayniqsa, pedagogika, tarbiyaning ahamiyatli jihatlari to'g'risida fikr yuritiladi. Shuningdek, ushbu an'ananing davomli bo'lishida olib borilayotgan sa'y harakatlar yoritilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается важная роль традиции учителя-ученика, являющейся одной из древнейших ценностей, в деятельности и жизни молодого поколения, молодых кадров, а также значимые аспекты педагогики и воспитания в традиции учителя-ученика. Также освещаются усилия по сохранению этой традиции.

#### SUMMARY

The article examines the important role of the teacher-student tradition, which is one of the oldest values, in the activities and lives of the younger generation, young personnel, as well as significant aspects of pedagogy and education in the teacher-student tradition. Efforts to preserve this tradition are also highlighted.